



O‘ZBEKISTONDA DAROMADLAR TENGSIZLIGINI TARTIBGA SOLISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Axmadjonov Otabek Baxtiyor o‘g‘li

TDIU magistranti

Har qanday mamlakatda aholi daromadlari tabaqalanishini tartibga solishning eng optimal usullaridan biri bu bozor mexanizmlaridan samarali foydalanishdir. Bunda daromadlarni tartibga solishning innovatsion modellarni qo‘llash, jumladan, sohada klaster tuzilmalarini yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Klaster – manfaatdor sub’ektlar (ta’lim, hokimiyat, ishlab chiqarish) kuchlarini birlashtirish, ularni bir-biriga manfaatli bog‘lashning tashkiliy shakli hisoblanadi.

Klasterlarni shakllantirish va ularning muvaffaqiyatli ishlashi uchun hududlarda foydalanilmay yotgan davlat ob’ektlari mavjud bo‘lib, ular manfaatdor sub’ektlar kuchlarini birlashtirish uchun asos va manba bo‘lib xizmat qiladi va vazifa – muayyan kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan ishchi va mutaxassislarga nisbatan yuzaga keladigan ehtiyojni qondirish hisoblanadi. Klaster tuzilmalar orqali biznes tuzilmalar tomonidan muayyan miqdordagi zarur ishchi kadrlar va mutaxassislar bo‘yicha «buyurtma»lar berish, ularni ish beruvchi talabiga muvofiq zamonaviy, jahon andozalari asosida hududiy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ko‘magida kasbga o‘qitish va qayta o‘qitish uchun shart-sharoitlar yaratiladi. Bu esa, o‘z navbatida, hududiy mehnat bozoridagi dolzarb muammolardan biri bo‘lgan malakali ishchi kadrlar etishmasligi muammosini echishga, hududiy mehnat bozoridagi keskinlikni yumshatishga, samarali mehnatda bandlikni ta’minlashga ko‘maklashadi.

Hududlarda klaster tuzilmalarining yaratilishi mehnat bozorida integratsiyalashgan uch darajali tizimni shakllantirish, mazkur tizimni boshqarish



mexanizmini ishlab chiqish uchun esa, bu darajalarning ahamiyatini aniqlab olish talab etiladi.

Xususan, birinchi daraja yoki tizim asosi bo'lgan bozor sharoitlarida taklif etilayotgan mehnatga moslashish bo'lib, ikkinchi daraja o'z ichiga oliy va o'rta maxsus ta'limi dasturlari bilan uyg'unlashtirilgan «blok-modul» tamoyili bo'yicha uzluksiz ta'limning barcha dasturlarini ishlab chiqishni, uchinchi daraja esa, qo'shimcha kasb-hunarga tayyorlashni va darajalar bo'yicha alohida Markazlar yaratishni o'z ichiga oladi. Bu modelni amalga oshirish uchun shunday yo'nalishni aniqlash kerakki, bunda integratsiyalashgan ijtimoiy-iqtisodiy tizim va mehnat resurslari bir maqsadga yo'naltiriladi.

O'zbekistonda «Har bir oila – tadbirkor» davlat dasturi asosida kam daromadli, kam ta'minlangan oilalarga bank kreditlari ajratilmoqda. Bu kredit mablag'lari asosan issiqxonalar qurish, chorvachilik (quyonchilik, asalarichilik, qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik va boshq.)ni rivojlantirish orqali kam ta'minlangan oilalardagi mehnatga layoqatli aholining o'zini o'zi ish bilan ta'minlash, ularni doimiy daromad manbaiga ega qilish va kam ta'minlanganlar safidan chiqarishga yo'naltirilmoqda. Bu bilan iqtisodiyotning norasmiy sektorida mehnatda band bo'lgan aholini iqtisodiyotning rasmiy sektoriga o'tkazilmoqda va ularni ijtimoiy himoya qilish ishlari olib borilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu sohalarda o'zini o'zi ish bilan ta'minlayotgan mehnatga layoqatli aholining aksariyat qismida o'z shaxsiy biznesini rivojlantirib yuborish uchun bilim, ko'nikma va tajriba etishmaydi. Shuning uchun bu sohalarda mikro klaster tuzilmalarini tuzish zarurati kelib chiqadi. Mazkur mikro klaster tuzilmalari «ma'lumot berish → ta'minot → ishlab chiqarish → marketing» prinsipida ishlab, kredit olgan oilalarda o'zini o'zi ish bilan ta'minlayotgan mehnatga layoqatli aholiga ko'maklashadi. Bu mikro klaster tuzilmalari yordamida «davlat → biznes tuzilma → oila → biznes tuzilma → davlat» o'zaro manfaatlari ta'minlanadi.



Ma'lumot berish – bu issiqxonalarda mahsulot etishtirish va chorvachilikda mahsulot ishlab chiqarishning ilmiy asoslari bilan tanishtirish bo'lib, bu ishni mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari (davlat) hamda biznes tuzilma o'z zimmlariga oladilar.

Ta'minot – issiqxonalarda etishtiriladigan o'simliklar ko'chatlari, urug'lari, shuningdek chorva mollarini ozuqa bilan ta'minlash bo'lib, bu ishni biznes tuzilmalar o'z zimmlariga oladilar.

Ishlab chiqarish – «Har bir oila – tadbirkor» davlat dasturi asosida kredit mablag'lari olgan oilalar mablag'larni maqsadli, ya'ni ishlab chiqarishga yo'naltiradilar. O'zini o'zi ish bilan ta'minlash orqali turli-tuman mahsulotlarni ishlab chiqaradilar.

Marketing – oilalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xaridorini topish va etkazib berish bo'lib, bu ishni biznes tuzilma hamda mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari (davlat) o'z zimmlariga oladilar. (3.2.2-rasm)

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mikro klaster tuzilmalarini hududiy va makro darajadagi klaster tuzilmalariga bog'lash zarur. Bu vazifani Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining joylardagi markazlari orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida daromadlar taqsimlanishi va uning hozirgi holati tahlil etilganda, 2025 yilgacha aholi daromadlarining o'zgarishi demografik bosim ostida bo'lganligi va bu holatni mehnatga layoqatli aholi bandligini ta'minlash orqali yumshatish mumkinligi to'g'risida xulosa qilingan edi. Shu nuqtai nazardan respublikada aholi daromadlari o'rtasidagi tengsizlikni qisqartirish bo'yicha yaqin kelajakdagi istiqbolni belgilashda ierarxik tahlil usulidan foydalanib, masalaga konseptual yondashildi.

Daromadlar taqsimoti iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, siyosiy, demografik kabi ko'plab omillarga bog'liq bo'lgan ierarxik tuzilishga ega bo'lgan tizim hisoblanadi va u mehnat bozori orqali tartibga solinadi. Shu nuqtai nazardan aholi daromadlari



o'rtasidagi tengsizlikni qisqartirish istiqbolini belgilashda ierarxik tahlil qilish usuliga asoslangan yondashuv tanlandi. Ierarxik tahlil qilish usuliga ko'ra, respublikada daromadlar tengsizligi yuzaga kelishining real holatini aniqlovchi barcha ko'rsatkichlar, mezonlar, omillar alohida-alohida o'rganildi va mamlakatda daromadlar taqsimlanish jarayonlari yaxlit ko'p darajali tizim sifatida ko'rib chiqildi, ya'ni daromadlar tengsizligini qisqartirishning istiqboldagi holatini belgilovchi ierarxik tuzilma bir necha darajalarga ajratildi.

Bunda birinchi daraja daromadlar tengsizligini qisqartirish yo'nalishlari belgilansa, ikkinchi daraja qo'yilgan maqsadga erishishga ta'sir etuvchi omillar, ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, siyosiy, demografik omillardan iborat. Ushbu omillarning har biri, ya'ni, 1) mehnatga layoqatli aholi; 2) tashkilotlar va korxonalar; 3) sarmoyadorlar; 4) hukumat; 5) aholi bandligiga ko'maklashuvchi markazlar turli darajada aholi daromadlari o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirishga ta'sir qilgani holda uchinchi darajani tashkil etadi.

To'rtinchi daraja uchinchi darajada joylashgan mehnat bozori asosiy sub'ektlarining maqsadlarini o'zida ifoda etadi, ya'ni mehnat bozorida mehnatga layoqatli aholining maqsadi – moddiy farovonlikka erishish, ijtimoiy himoya, kasbiy o'sish, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish bo'lsa, tashkilotlar va korxonalar mehnat bozorining sub'ekti sifatida o'zlariga malakali mehnat resurslarini, ilg'or texnologiyalarni jalb qilishga hamda foyda va barqarorlikka erishishga intilishadi, sarmoyadorlar esa foyda, iqtisodiy va siyosiy barqarorlik, ilg'or texnologiyalarni jalb etishdan manfaatdorlar, hukumat esa jamoat tartibini, ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga, mehnat resurslarini mehnatda band etishga, davlat byudjetini samarali shakllantirish va undan unumli foydalanishga intiladi, aholi bandligiga ko'maklashuvchi markazlar o'zlarining asosiy maqsadlari sifatida ishsiz aholini ish bilan ta'minlashni, ularning kasbiy o'sishiga va ijtimoiy moslashishiga ko'maklashishni ko'radilar.



Ierarxik model mehnat bozorini ko‘p variantli sценariy asosida tahlil etish va istiqbolda taklif etilgan variantlarga asoslanib, bu variantlar ichidan ustun bo‘lgan sценariyni tanlash imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha, bu holatda O‘zbekistonda daromadlar o‘rtasidagi tengsizlikni qisqartirish istiqboliga nisbatan quyidagi muqobil sценariylarni ko‘rib chiqish imkonini beradi:

1. Yaqin kelajakda respublikada mehnat resurslariga talab va taklif o‘rtasida nomutanosiblikning mavjudligi daromadlar o‘rtasidagi tengsizlikning yanada kuchayishiga sabab bo‘ladi;

2. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar ta’sirida ishsizlik darajasining ortishi va bu bilan mehnat bozorida ishchi kuchi resurslari taklifining ortishi bozorda ish haqi darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin;

3. Yuqori malakali kadrlar bozorining kengayishi, ya’ni ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlanishi, iqtisodiyotni modernizatsiyalash bilan bog‘liq ravishda mehnat bozorida yuqori malakali mutaxassislarga talabning ortishi ayrim kasb egalari daromad darajasining oshishiga sabab bo‘ladi;

4. Davlat korxonalarini faoliyatini tiklash yo‘li bilan iqtisodiyotning davlat sektorini rivojlantirish va qo‘shimcha yaratilgan ish o‘rinlarini to‘ldirish uchun mehnat resurslariga bo‘lgan talabning ortishi o‘rtacha ish haqining ortishiga olib keladi;

5. Mehnat migratsiyasining kuchayishi mamlakatda pul massasining oshishiga ta’sir ko‘rsatadi.